

QADIM TARIXGA EGA BO'LGAN BUXORO SHAHRI ME'MORIY  
OBYEKTLARIGA BIR NAZAR

**Ergasheva Shaxista Abduragim qizi**

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Muzey menejmenti va  
madaniy turizm yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada tarixda alohida o'ringa ega bo'lgan Buxoro shahri me'moriy obidalarini haqida so'z yuritiladi. Ularning hozirgi ahvoli, saqlanish sharoitlari, turizm rivojlanishiga qay darajada hissa qo'shgan holatlarini ko'rib chiqamiz.*

**Kalit so'zlar:** *Madrasa faoliyati, darsxona, Mir Arab, Amir Temur, ilm-fan, hunarmandchilik, turizm, Naqshbandiya tariqati targ'iboti, G'ijduvon, Samarqand.*

Mamlakatimizning Buxoro shahrida qadimiy obidalar juda ko'p. Shularga nazar tashlaydigan bo'lsak, ular orasiga o'z mavqeyiga ega Mir Arab madrasasi ham mavjud. Tarixiy manbalarda madrasa 111 hujradan iboratligi ko'rsatilgan. Biroq hozirgi mualliflar hujralar sonini Qur'on suralariga muvofiq 114 ta hujra deya axborot berishmoqda. Madrasa ulkan peshtoqli, darvozasi orqasida besh gumbazli miyonsaroy, ikki yonida baland gumbazli keng darsxona va masjid, go'rxona joylashgan. Koshinkori naqshlar yozuvlar bilan uyg'unlashgan, ammo hozirgi kunda ular saqlanib qolinmagan. Go'rxona shipi va devorlari ganch o'ymakorligida bezatilgan, izarasi rangbarang koshinli qilib ishlangan. Go'rxonada 1537-yilda vafot etgan Ubaydullaxonning yog'ochdan xotamkori usulida ishlangan sag'anasi va Mir Arab hamda uning qarindoshlari qabrlari saqlandi. Madrasa hovlisi to'rtburchak shaklda bo'lib, hovlini 114 hujra o'rab turadi. Tomonlar o'rtasidagi baland peshtoqli darsxona — ayvon hovli mahobatini oshiradi. Tuzilishi jihatidan naqshinkor janubiy peshtoqning dastlabki qiyofasi saqlanib qolgan, bu naqshlarning tarkibiy qismida yulduzsimon bezaklar uchraydi. Undagi bezaklarning saqlanib qolgan ayrim parchalaridan naqshlar g'oyat nafis va nozik bo'lganligini bilish mumkin. Buxoro shahrining 2500-yilligi munosabati bilan Madrasa peshtoqi va gumbazlaridagi to'kilib ketgan koshinkori naqshlar va yozuvlar qayta tiklandi.

Rivoyatlarga ko'ra, madrasa asosi chuqur qilinib, tog'dan olib kelingan toshlar bilan mustahkamlangan, qor, yomg'ir suvini qochirish uchun tazarlar ishlangan, ular orqali suvlar shahar qo'rg'onidan tashqariga chiqarilgan. Mir Arab (asl ismi Sayyid Abdulloh Yamaniy) — diniy ulamo. Naqshbandiya tariqati tarbiyachisi sifatida mashhur bo'lgan. O'zbek hukmdori Ubaydullaxonning piri bo'lgan. Mir Arab madrasasini qurdirgan. U naqshbandiya tariqatining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Madrasa qurilishini nihoyasiga yetkaza olmagan, 1536-yil boshida Mir Arab vafot etgan va uning vasiyatiga ko'ra o'zining kuyovi Shayx Zakariyo qurilishni oxiriga yetkazgan. O'sha davrning mashhur xattotlaridan Mirali Fathobodiy-Buxoriy Mir Arab madrasasining darvozasiga quydagi forsiy qit'ani qayt etadi:



“Mir Arab faxri Ajam onki kard — Madrasai olii bas bul ajab. Bul ajab on ast ki tarixi u: Madrasai olii Mir Arab”

Sovet davrida 1920-1930-yillar davomida mamlakatimizdagi barcha madrasalar yopib tashlangan. 1945-yilda Oʻrta Osiyo musulmonlari diniy boshqarmasi muftiysi Eshon Boboxon davlat organlari bilan uzoq davom etgan muzokaralardan soʻng Oʻrta Osiyoda islom taʼlimini qayta yoʻlga qoʻyishga erishgan. Urushdan keyingi davrda SSSRda madrasaning tiklanishi SSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1945-yil 10-oktyabrdagi „Buxoro va Toshkentda madrasalar tashkil etish toʻgʻrisida“gi farmoni bilan boshlandi. Farmon asosida Oʻzbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining 1945-yil 29-noyabrdagi „Oʻrta Osiyo va Qozogʻiston diniy boshqarmasiga ikkita diniy maktab ochishga ruxsat berish toʻgʻrisida“gi farmoni ishlab chiqildi. Ushbu qarorga asoslanib, 1946-yilda Oʻzbekiston SSRda Mir Arab madrasasi ochildi. 1947-yil 1-iyun holatiga koʻra, I. V. Polyanskiyning maʼlumot berishicha, Mir-Arabda 26 talaba va 3 nafar oʻqituvchi boʻlgan. Ilmiy adabiyotlarda madrasaning turli nomlari bor. Ammo 1989-yilda madrasani tamomlagan Rifqat Rafiqovga berilgan 67-sonli oʻqishni tamomlaganligi toʻgʻrisidagi guvohnomaga koʻra, madrasa „Mir-Arab“ deb atalgan.

„Mir Arab“ SSSRda 1946—1956 va 1961—1989-yillarda yagona musulmon oʻrta taʼlim muassasasi boʻlgan. SSSRdagi ikkinchi madrasa — Baroqxon 1956-yilda Toshkentda ochilgan, ammo hokimiyat tomonidan 1961-yilda binoning holati yomon ahvoldaligi bahonasida yopilgan.

Oʻzbekistonda joylashgan barcha qadimiy madrasa, tarixiy meʼmoriy obidalar mamlakatimizda turizm sohasi rivojlanishi uchun oʻz hissasini qoʻshib kelmoqda. Shu jumladan, Mir Arab madrasasi ham oʻzining butun tarixi davomida tutgan oʻrni bilan ajralib turadi. Bu madrasa oʻz vaqtida mashhur taʼlim dargohi vazifasi ham oʻtab kelgan. Hozirgi kunda esa mamlakatimizga kelgan turistlar Samarqand, Xiva, Buxoroni koʻrmasdan ketmaydi. Buxoro shahri obidalarining orasida esa Buxoro arki, Mir Arab madrasasi, Somoniylar maqbarasi, Labi hovuz kabi bir qator meʼmoriy yodgorliklarimiz mashhurdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

1. Islom Karimov “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” asari. Toshkent “Maʼnaviyat” 2008
2. Jumanazar A. K.. Buxoro taʼlim tizimi tarixi. Toshkent: Akademnashr, 2017 — 592 bet.
3. Muzey ashyolarining ekspertizasi va restavratsiyasi. J.Z.Axmedov. Oʻquv qoʻllanma
4. R. H. Murtazoyeva. “Oʻzbekiston tarixi”. Toshkent 2005-yil
5. Zamonaviy jahon muzeyshunosligi. J.X. Ismoilova. M.S. Muxamedova. Oʻquv qoʻllanma.
6. Halim Toʻrayev “Buxoro tarixi”: Oʻquv qoʻllanma, “Durdona” nashriyoti Buxoro 2020-yil
7. Herman Vamberi “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” Gʻafur Gʻulom nashriyoti 1990-yil

